

Fuqarolik sud ishlarini yurtishni optimallashtirish tushunchasi, ahamiyati va zarurati

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro arbitraj va nizolarni hal qilish yo`nalishi magistri
Xaitxodjayeva Farangis Avazovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritishni optimallashtirish tushunchasi, ahamiyati, huquqiy asoslari, nazariy va amaliy masalalar, mazkur masala bo'yicha yuridik adabiyotlarda ilgari surilgan g'oyalar, taklif, fikr va mulohazalar, shuningdek, xorijiy davlatlarning qonunchilik tajribasi va xalqaro standartlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasiga ko'ra, xorijiy mamlakatlar tajribasini qonunchiligimizga implementatsiya qilish masalalari hamda milliy qonunchiligimizni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish: Mustaqillik yillarida mamlakatimizning sud-huquq sohasi tubdan isloh etilib, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlar ustunligiga asoslangan huquqiy tizim yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil

2- avgustdagi “Sud tizimi xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4459-sonli Farmoni bilan sud ishlarini mustaqil yuritish va sud organlari xodimlarining ijtimoiy maqomini muhofaza qilish uchun zarur huquqiy va sotsial kafolatlarning kuchaytirilishi sud organlarining davlat boshqaruvidagi roli va ahamiyati yanada oshirilishida, ularning mustaqilligini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Ma'lumki, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va manfaatlarini, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining himoya

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 2-avgustdagi “Sud tizimi xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4459-sonli Farmoni // "Xalq so'zi", 2012 yil 3 avgust. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2012 yil, 31-son, 355-modda.



qilininishini ta'minlashda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning rolini alohida qayd etish joiz. O'z navbatida sudlar oldiga qo'yilgan ushbu sharaflı vazifani to'laqonli amalga oshirilishida yuqoridagi Farmonda alohida qayd etilganidek, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tizimini optimallashtirish, xususan, fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etish maqsadida eng qulay va eng yaxshi natija beradigan shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonida, ushbu davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining muhim vazifalaridan biri sifatida faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilg'or ilmiy-texnika vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shuningdek ishni tashkil etishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish belgilandi. Farmon bilan shuningdek, elektron tartibda sud ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini, shuningdek odil sudlovga erishishning ilg'or mexanizmlarini kengroq joriy etish orqali odil sudlovni amalga oshirish sifatini yaxshilashni nazarda tutuvchi takliflarni ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining (keyingi o'rinlarda FPK deb yuritiladi) qfagul qilishini fuqarolik sud ishlarini yuritishni optimallashtirish va uning shakl va vositalarini tadqiq etib o'rganishni yanada muhim masalalardan ekanligini tasdiqladi.

Shu o'rinda, optimallashtirish atamasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, optimallashtirish (lotinchada optimus - eng yaxshi, eng soz, a'lo) mavjud bo'lgan holatning eng yaxshisini tanlash imkoniyati bo'lib, uning natijasida u yoki bu tizimning mavjud holati yanada yaxshilanadi. Yuridik adabiyotlarda optimallashtirish 3 elementni o'zida qamrab olishi to'g'risida fikr-mulohazalar ilgari suriladi. Ular: maqsadga erishish yo'lidagi samaradorlik; foydalilik va tejamlilik.²

Yuridik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, fuqarolik sud ishlarini yuritishning optimallashtirilishi deganda esa, odil sudlovning maqsad va

² Куприянович Н.В. Критерии эффективности деятельности мировых судей // Мировой судья. - М.: Юрист, 2006, № 1. - С. 2-6



vazifalariga erishishning eng yaxshi va maqbul yo‘lini tanlash imkonini beruvchi fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal etish mexanizmini takomillashtirish tushuniladi.³

Sud-huquq sohasidagi islohotlar samarasi o‘laroq shakllangan va faoliyati tobora takomillashib borayotgan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda ko‘rilayotgan ishlarning soni ortib borayotganligining o‘zi sudlarning inson haq-huquqlarini himoya qiluvchi idora sifatida ahamiyatining ortib borayotganligidan dalolat beradi. O‘z navbatida, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish mexanizmining samaradorligini oshirish maqsadida ayrim fuqarolik ishlarini o‘ziga xos moddiy-huquqiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqishning yangi protsessual tar-tiblarini bosqichma-bosqich joriy etish taqozo etilmoqda. Fuqarolik ishlarini ularning o‘ziga xos maxsus xususiyatlarini e‘tiborga olmay barcha ishlar uchun bir xil bo‘lgan tartib-taomilning qo‘llanilishi maqsadga muvofiq emasligini hayotning o‘zi tasdiqlamoqda. Xususan, ayrim toifadagi nizosiz talablarni fuqarolik protsessida buyruq tartibida hal etish institutining joriy etilganligi va mazkur institut tobora takomillashib borayotganligi fikrimizni tasdiqlaydi.

Fuqarolik sud ishlarini optimallashtirish vositalarini umumiy va maxsus turlarga ajratish mumkin. Umumiy vositalarga odil sudlovni amalga oshirish mexanizmini optimallashtirishga xizmat qiluvchi vositalar, ya'ni protsessual muddatlarni optimallashtirish, fuqarolik protsessi bosqichlarini (fuqarolik ishini qo‘zg‘atish, tayyorlash, ishni mazmunan ko‘rish, sud hujjatlarini qayta ko‘rish va ijro) optimallashtirish kiradi.

Sud ishlarini yuritishni optimallashtirishning maxsus vositalariga fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal etishni tezlashtirish va soddalashtirishga qaratilgan maxsus institutlarni tashkil etish va joriy qilishga yo‘naltiriladi. Maxsus vositalar sifatida soddalashtirilgan, buyruq tartibida va sirdan ish yuritish, kelishtiruvchi tartib-taomillar e‘tirof etiladi.⁴

Adabiyotlarda fuqarolarning huquqlarini amalda himoya qilish ishlarni nafaqat to‘g‘ri hal etish, shu bilan bir qatorda tez fursatlarda himoya qilishni

³ Царегородцева Е.А. Способы оптимизации гражданского судопроизводства: Дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.15. - Екатеринбург, 2006 г. -236 с.

⁴ Царегородцева Е.А. Способы оптимизации гражданского судопроизводства: Дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.15. - Екатеринбург, 2006 г. -238 с.



ham nazarda tutishi, aks holda protsessda yutib chiqqan taraf o‘z talablarining qanoatlantirilganidan haqiqatda qanoatlanmasligi alohida ta’kidlab kelinadi.⁵ Shu nuqtai nazardan XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida G‘arbiy Yevropa davlatlari fuqarolik protsessual qonunchiligiga sud ishlarini yuritishni tezlashtirish va soddalashtirishga qaratilgan bir qator jiddiy o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilganligini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Xususan, sud orqali himoyani tezlashtirish va soddalashtirish masalasiga Yevropa Ittifoqi organining maxsus qarori qabul qilingan.⁶

Material va metodlar: Ushbu tadqiqotda fuqarolik sud ishlarini yuritish tizimini o‘rganish va ularni optimallashtirishning samarali yo‘llarini aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar, amaldagi qonunchilik bazasi, sud amaliyoti misollari hamda statistik ma’lumotlardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy ilmiy uslublar qo‘llanildi:

- **Tahliliy metod** – fuqarolik sud ishlarini yuritishga oid O‘zbekiston Respublikasi Fuqaroviy protsessual kodeksi, sud qarorlarining mazmuni va mavjud tartib-taomillar o‘rganildi.
- **Solishtirma-huquqiy metod** – xorijiy mamlakatlardagi (Rossiya, Germaniya, AQSh) fuqarolik ish yuritish tizimi bilan O‘zbekiston tajribasi solishtirilib, samarali usullar aniqlab chiqildi.
- **Empirik metod** – fuqarolik ishlarini yuritishdagi muammolar va ularni optimallashtirishga doir mavjud amaliyotlar, sudya va yuristlarning fikrlari asosida umumlashtirildi.
- **Statistik tahlil** – 2020–2024 yillar oralig‘idagi fuqarolik sud ishlarining ko‘rsatkichlari asosida tahlil olib borildi.

Tadqiqot uchun asosiy manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Konstitutsiya, Fuqaroviy protsessual kodeks, Oliy sud qarorlari, vazirliklar va sud organlari tomonidan e‘lon qilingan statistik hisobotlar hamda ilmiy maqolalar, monografiyalar va boshqa tegishli hujjatlar xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari: Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlar fuqarolik protsessida taraflarni o‘zaro murosaga

⁵ Вершинин А.П. Способы защиты гражданских прав в суде. Диссертация в виде научного доклада на соискание ученой степени доктора юридических наук. -Санкт-Петербург. 1998, -40 с.

⁶ Доступ к правосудию. Резолюции и рекомендации Кабинета Министров Совета Европы по вопросам обеспечения более простого доступа граждан к эффективному правосудию // Российская юстиция. 1997. № 6. -С. 2-6; № 7. -С. 5-8.

keltiradigan, yarashtiradigan, ishning xususiyati va turiga qarab maxsus soddalashtirilgan va jadallashtirilgan tartib-taomillarni joriy etish yo‘lini tanlagan. Xususan, Buyukbritaniya, Germaniya, AQSh kabi davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligida fuqarolik ishlari uch turdagi, ya'ni oddiy, standart va murakkab tartib-taomillarga ajratilib ko‘riladi.

Germaniyada fuqarolik ishlarini sudda ko‘rish va hal etish nafaqat sudyalarning sonini ko‘paytirish orqali, balki sud ishlarini hal etishning soddalashtirilgan va jadallashtirilgan tartib-taomillarini joriy etish evaziga tezlashgan. Shuning uchun ham nemis qonunchiligi fuqarolik protsessini soddalashtirish bo‘yicha bir necha bor jiddiy islohotlarga duch kelgan va oqibatda “Soddalashtirish, jadallashtirish va sudyalarning yuklamalari bo‘yicha qonunlar va qonunlar to‘plami” deb nomlangan maxsus qonunlar qabul qilingan.⁷

Fuqarolik sud ishlarini soddalashtirish bo‘yicha anglo-amerika va kontinental huquq tizimini tahlil qiladigan bo‘lsak, masalan, anglo-amerika huquqida soddalashtirilgan protsess uchun sudga qadar yoki suddan tashqari muzokaralar olib borish yo‘li bilan ish tutish xarakterli bo‘lsa, kontinental huquqda (eng avvalo, nemis huquqida) – umumlashtirilgan (dokumentar) protsess xarakterli hisoblanadi. Kontinental huquq tizimi amal qiladigan davlatlarda sud orqali himoyani soddalashtirishga imkon beradigan institutlarni (qonunchilik, reyestrlar, notariat) tashkil etishga ko‘p mablag‘ ajratiladi. Anglo-amerika huquq tizimida esa, aksincha, bu borada sud faoliyati uchun Yevropa davlatlariga qaraganda 3-7 baravar ko‘p mablag‘ ajratiladi.

G‘arbiy Yevropa davlatlarida soddalashtirilgan sud ishlarini yuritish tartibida qarzdorlikni undirish bo‘yicha umumlashtirilgan (summary) va hujjatli (Urkundenprozess) ish yuritish olib borilishi e‘tiborga loyiq. Soddalashtirilgan tartibda ish yuritishning muhim shartlaridan biri sifatida yozma dalillarga alohida e‘tibor beriladi. Chunki yozma dalillar boshqa dalillar ichida nisbatan ishonchliroq hisoblanadi. Mazkur dalillarning mavjudligi boshqa dalillarni yig‘ish va tekshirishni talab etmaydi, shuningdek ish bo‘yicha materiallar bilan ishlash jarayonlarini tezlashtiradi. Masalan, Germaniya

⁷ Вершинин А.П. Способы защиты гражданских прав в суде. Диссертация в виде научного доклада на соискание ученой степени доктора юридических наук. -Санкт-Петербург. 1998, -40 с.

fuqarolik protsessida soddalashtirilgan tartibda sud ishlarini yuritish quyidagilarda namoyon bo‘ladi: sud buyruqlari, ya’ni “majbur qiladigan” ish yuritish (Mahnver-fahren); hujjatli (dokumantar) ish yuritish (Urkundenprozess) va kelishtiruvchi sudlarda – ashs-gerixtaxda ish yuritish (Verfahren von den Amtsgericht).⁸

Birmuncha soddalashtirilgan hujjatli (dokumantar) ish yuritish (Urkundenprozess) bilan bir qatorda nemis fuqarolik protsessida huquqni samarali himoya qilishning vositasi sifatida “majbur qiladigan” qarorning chiqarilishi yoki boshqacha aytganda, sud buyrug‘i chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Muqaddam mazkur qaror “to‘lov haqida buyruq” (Zahlun-gsbefehl) deb atalgan. Majbur qiladigan ish yuritish (Mahnver-fahren)ning asosiy vazifasi sudda ishni ko‘rmasdan turib, ijro hujjatini olish hisoblanadi. Bunday ish yuritishning asosiy sharti-qarzdor tomonidan o‘z zimmasidagi majburiyatni belgilangan muddatlarda bajarilmasligidir. Bu o‘rinda qonun qarzdorning huquqlarini ham himoya qilishni nazarda tutadi. Xususan, qarzdor ishni odatdagi tartib-taomillar asosida ko‘rilishini talab qilish va ushbu jarayonda o‘z e’tirozlarini bildirish huquqiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham majbur qiladigan ish yuritish sudda ish ko‘rishdan avvalgi bos-qich hisoblanishi haqida fikr-mulohazalar ilgari suriladi.⁹

Talabning summasidan qat’i nazar arizalar undiruvchining yashash joyidagi sudga taqdim etiladi. Ikki hafta muddat ichida qarzdor qarzdorlikni to‘lashi yoki bu bo‘yicha o‘z e’tirozlarini taqdim etishi shart bo‘ladi. Agar mazkur muddat ichida qarzdordan e’tiroz kelib tushmasa, sud undiruvchi talablarining asosli ekanligini tekshirmaydi. Talabning nizosiz ekanligi qarzdor tomonidan undiruvchining talablariga qarshi e’tirozning bo‘lmasligida hamda ishni odatdagi jarayonda ko‘rilishini talab qilmasligida ko‘rinadi. Bu esa qarzdor tomonidan ortiqcha sud xarajatlarining qilinishini oldini oladi. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1989 yilda Germaniya sudlariga nizosiz tartibda qarzdorlikni undirish to‘g‘risida 5,3 mln. ariza kelib tushgan (shu

⁸ Грибанов Ю.Ю. Рассмотрение дел в порядке упрощенного производства в гражданском и арбитражном процессе: Сравнительное исследование правовых систем России и Германии: Автореф. дис. соискание ученой степени канд. юрид. наук. -Томск, 2007. -8 с.

⁹ Вершинин А.П. Вексельный процесс: Упрощение и дифференциация // Правоведение. -1999. - № 3. – 170 с.

o‘rinda ushbu ko‘rsatkich 1980 yilda 650 mingtani tashkil etgan¹⁰⁾ va bulardan atiga 11 % bo‘yicha qarama-qarshi tarafdin e‘tiroz kelib tushgan.¹¹

Fuqarolik protsessida sud ishlarini soddalashtirilgan tartibda hal etish bo‘yicha Germaniya fuqarolik sud ishlarini yuritish qonun hujjatlari bir qator printsiplarga asoslangan. Ushbu printsiplar ichida sud jarayonlarini tezlashtirish, soddalashtirish muhim o‘rin egallaydi. Mazkur printsiplarda sud fuqarolik ishlarini ko‘rish vaqtini qisqartirishni nazarda tutuvchi qonunchilikda belgilangan choralar orqali ta‘minlanadi. Xususan, fuqarolik ishi sudga tez va o‘z vaqtida ko‘rib hal etilishi uchun mazkur ish sud majlisiga qadar puxta tayyorgarlikdan o‘tadi. Zero, Germaniya fuqarolik protsessual qonunchiligida sud muhokamasi iloji boricha qisqa muddatda olib borilishi haqida norma mustahkamlab qo‘yilgan. Sud ishini sudga ko‘rishga tayyorlash bo‘yicha talab qilinadigan barcha protsessual harakatlarni o‘z vaqtida o‘tkazish va taraflarga ish bo‘yicha o‘z pozitsiyalarini aniqlab olish hamda ish bo‘yicha guvohlar, ekspertlarni sudga jalb qilish hamda boshqa shaxslardan yozma dalillarni talab qilish bo‘yicha yordam berish majburiyatini. O‘z navbatida, taraflar ham o‘z manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi protsessual vositalarni o‘z vaqtida sudga taqdim etishlari, aks holda ushbu dalillar sud tomonidan rad etilishi mumkin.¹²

Germaniya fuqarolik protsessual qonunchiligida sud ishlarini soddalashtirilgan tartibda yuritish bir qator shartlarga asoslanishini ta‘kidlash o‘rinli bo‘ladi. Mazkur shartlarning dastlabkisi, talabning mazmuniga (ayniqsa, pul majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq talablarga), ikkinchisi esa taraflarning kelishuviga (yoki e‘tirozning bo‘lmasligiga), shuningdek yozma dalillarning asoslanganligiga (kuchiga) tayanadi. Shu o‘rinda, G‘arbiy Yevropa davlatlari fuqarolik protsessida yozma dalillar (ayniqsa, ommaviy hujjatlar) boshqa isbotlash vositalariga nisbatan yuqori isbotlash kuchiga ega ekanligi haqida umum e‘tirof etilgan qoida amal qiladi.

¹⁰ Baur F. Zivilprozessrecht. Frankfurt am Main, 1985. S. 219.

¹¹ Rosenberg L, Schwab K. H., Gottwald P. Zivilprozessrecht. Munchen, 1993. -993 c.; Baur F. Zivilprozessrecht. Frankfurt am Main, 1985. S. 219.

¹² Stein F. Kommentar zur Zivilprozessordnung. Tubingen. 1984. S. 82.; Baur F. Zivilprozessrecht. Frankfurt am Mein. 1985. S. 25—49; Jauernig O. Zivilprozessrecht Munchen, 1985. S. 70—100.



Rivojlangan Yevropa davlatlarida sud ishlarini soddalashtirilgan tartibda yuritishning kelajakdagi ustuvor yo‘nalishlari sifatida taraflarning vakillari (advokatlari) tomonidan ish bo‘yicha rasmiylashtirilgan tushuntirishlarning taqdim etilishi e‘tirof etilmoqda. Ingliz fuqarolik protsessual qonunchiligida ushbu toifadagi hujjatlarga nisbatan qo‘yiladigan talablar o‘z ifodasini topgan.

XX asrning oxirida ingliz fuqarolik protsessidagi islohotlarning muhim yangiliklaridan biri ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessgacha bo‘lgan protsessual harakatlariga e‘tiborni kuchaytirish bo‘lgan. Britaniya sudlari 1998 yilgi fuqarolik sud ishlarini yuritish Qoidalari qabul qilingunga qadar fuqarolik ishlarini sudda ko‘rish, sud hal qiluv qarorini qabul qilish hamda sud xarajatlarini taqsimlash jarayonida nizolashayotgan shaxslarning o‘zaro munosabatlarini e‘tiborga olgan holda sud ishlarini soddalashtirish yoki ixchamlashtirishga harakat qilganlar. Taraflarning o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq faktorlarni e‘tiborga olish jarayonida sudyalar asosan o‘zlarining ichki ishonchlariga (inherent jurisdiction) tayanganlar. Fuqarolik protsessi ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlaridan kelib chiqib, ularga qo‘shimcha imkoniyatlar berish orqali sud ishini soddashtirish va ixchamlashtirishni nazarda tutuvchi maxsus normativ-huquqiy hujjat mavjud bo‘lmagan.¹³ Biroq 1999 yilning yanvar oyida “Practice Direction – Protocols” (amalda qo‘llaniladigan bayonnomalar) nomli amaliy qo‘llanmaning chop etilishi munosabati bilan bu boradagi holat birmuncha o‘zgardi va ish yuritish jarayonida fuqarolik protsessidagi nizolashuvchi taraflarning o‘zaro munosabatlarini e‘tiborga olish qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topdi. Unga ko‘ra, “sudlovga qadar bayonnoma” (“preaction protocol”) atamasi kirib keldi va mazkur bayonnomada kelgusida bo‘ladigan sud protsessi haqida taraflarni habardor qilish bilan birga ularning bir-birlari haqida ma'lumotlar olishga qaratilgan harakatlarini ham qayd etish boshlandi.

Bayonnomaning maqsadi quyidagilardan iborat:

1) kelajakda bo‘lishi kutilayotgan sud protsessida ishtirok etuvchi shaxslar (asosan, da‘vogar va javobgar)ni bir-birlari haqida hamda ishdagi dalillar to‘g‘risida oldindan va to‘liq ma'lumotlar bilan ta'minlash;

¹³ Кудрявцева Е.В. Современная реформа английского гражданского процесса. Автореф. дис. на соис. учен. степ. доктора юрид. наук. –Москва, 2008. -24 с.



2) taraflarga sud protsessi boshlangunga qadar o‘zaro kelishuv bitimi tuzish orqali nizoni bartaraf etish uchun imkoniyat yaratish;

3) sudda ish ko‘rishning cho‘zilishini oldini olish va uning o‘z vaqtida, samarali o‘tkazilishini ta‘minlash.

Amalda qo‘llaniladigan bayonnomalar (“Practice Direction – Protocols”) nomli amaliy qo‘llanma amalga kiritilgan dastlabki vaqtlarda unda faqat ikki toifadagi ishlar: bular – tez muddatlarda ko‘rilishi talab etiladigan shaxsga nisbatan yetkazilgan zararni undirish to‘g‘risidagi hamda vrachlarning sovuqqonligi va mas‘uliyatsizligi oqibatida yetkazilgan zarar-ni undirish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha taraflarning vakillari sudlovga qadar bayonnoma tuzish va imzolashga haqli bo‘lganlar.

Hozirda mazkur Qo‘llanmada har qanday holatda ham nizolashuvchi taraflar ishni sudgacha olib bormasdan o‘zaro muzokara olib borish, dalillar yuzasidan o‘zaro fikrlashishi mumkinligi haqida tavsiyalar berilgan.

Shu o‘rinda sudlovga qadar bayonnoma tuzishga nisbatan bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish, mazkur ishni sudda ko‘rishga tayyorlash, sud hal qiluv qarorini chiqarish hamda sud xarajatlarini taqsimlash jarayonida sud tomonidan e‘tibor-ga olinadi.

Yevropada shunday davlatlar mavjudki, ular ingliz fuqarolik protsessidagi sudlovga qadar bayonnoma “preaction protocol”ga doir tartib-taomillarni to‘laligicha o‘zlashtirib olganlar. Masalan, Gollandiya fuqarolik protsessual qonunchiligida bir-biriga nisbatan qarama-qarshi bo‘lgan taraflar o‘rtasida dalillarning tarkibi va boshqa faktlar bo‘yicha o‘zaro fikr almashishni nazarda tutuvchi maxsus bosqich - sudga qadar shakl joriy qilingan. 2004 yilda esa Yevropa Ittifoqining Yevropa sudlarining maslahat Kengashi o‘z Xulosasini qabul qilib, unda ingliz fuqarolik protsessidagi sudlovga qadar bayonnoma “preaction protocol” tartib-taomilini birmuncha ijobiy deb baholagan.¹⁴

Shu o‘rinda, bir qarashda ingliz fuqarolik protsessidagi sudlovga qadar bayonnoma “preaction protocol” deb nom olgan tartib-taomil O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 155–moddasi 7-bandida nazar tutilgan muayayn toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnoma

¹⁴ Кудрявцева Е.В. Современная реформа английского гражданского процесса. Автореф. дис. соис. учен. степ. доктора юридических наук. –Москва, 2008. -24 с.



yuborish) tartibiga rioya etilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni da'vogar taqdim etmagan taqdirda da'vo arizasini qaytarishga asos bo'ladigan holatlarga o'xshab ketadi.¹⁵ Biroq ingliz fuqarolik protsessidagi sudlovga qadar bayonnoma “preaction protocol” deb nom olgan tartib-taomil bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan yuqoridagi tartibdan farqlanadi. Xususan, ingliz sudida umumiy qoidaga ko'ra, sudlovga qadar bayonnoma tuzilgan - tuzilmaganligidan qat'i nazar muayyan fuqarolik ishi bo'yicha sudda ish yuritish da'vo arizasi ro'yxatga olingan kundan e'tiboran boshlangan hisoblanadi.

Shu o'rinda, Fransiya nizoli ishlarni sudda ko'rishni soddalashtirish kabi maqsadlarni nazarda tutuvchi sudlarni ixtisoslashtirish masalalariga alohida e'tibor berilganligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Xususan, mehnatga oid ishlarni ko'ruvchi maxsus sudlarda kelishuv bo'limi va sudlov bo'limi tashkil etilganligini alohida qayd etish kerak. Sudga kelib tushgan da'vo arizalari dastavval majburiy tartibda kelishuv bo'limiga beriladi va mazkur nizo yopiq sud majlisida kelishuv asosida hal qilinadi. Kelishuv bo'limida ish ko'rishning muhim protsessual xususiyatlari sifatida ushbu bosqichda ikkala tomondan saylangan sudyalarning ishtirok etishini e'tirof etish mumkin. Ushbu bosqichda har ikki sudya taraflarni ishni kelishuv asosida tugatishga chaqiradilar. O'z navbatida, kelishuvga erishish bir tomonning da'vodan voz kechishi yoki ikkala tomonning ham o'zaro teng manfaatlari asosida kelishuv bitimlarini tuzishlarida o'z aksini topadi. Fuqarolik ishlari yuzasidan tuzilgan kelishuv bitimini rasmiylashtirishning soddalashtirilgan usulining qo'llanilishi alohida e'tiborga loyiqdir. Jumladan, ushbu bosqichda ish bo'yicha guvohlar jalb etilmaydi hamda ishdagi mavjud dalillar sud tomonidan tekshirilmaydi va baholanmaydi. Shuningdek, taraflarning kelishuv bitimi sud hal qiluv qarorlari kabi kuchga ega bo'lgan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Ish yuzasidan kelishuvga erishilmagan taqdirdagina ish sudlov bo'limida mazmunan hal qilinadi.¹⁶

Xulosa: Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu davlatlarda qonunchilik ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // <https://lex.uz/docs/3523891#3530437>

¹⁶ Оробец В.М. Специализированные трудовые суды: зарубежный опыт и российское законодательство // Журнал российского права. 2003. -№ 9.



erkinliklarini ta'minlashning turli kafolatlarini o'zida mustahkamlagan. Ushbu kafolatlar ichida huquqni sud orqali himoya qilish nisbatan ko'p xarajat va vaqt talab etadigan shakl hisoblangani bois, birgina AQSh larida 90 foiz ishlar soddalashtirilgan tartibda ish yuritish orqali, 22 foizi sud hal qiluv qarorini chiqarish orqali (summary judgment), qolgan qismi esa kelishuv bitimi tuzish orqali tamomlanadi.¹⁷ Shu o'rinda huquqshunos olim Ye.I.Nosireva odil sudlovga yo'l qo'yish va uning osonlik bilan yechilishini nazarda tutish maqsadida AQShda mavjud bo'lgan tajribani, ya'ni advokat ishtiroki shart bo'lmagan, ish yuzasidan dastlabki ish yuritish talab etilmaydigan, taraflar o'rtasida bahsla-shishga qaratilgan qog'ozlarni bir-birlariga nisbatan taqdim etish majburiyati yuklatilmagan, da'vo ariza o'rniga sudda ish qo'zg'atishni osonlashtiradigan va o'zida taraflar haqida mini-mal ma'lumotlarni o'zida qamrab olgan arizalarni taqdim etish orqali ayrim kichik da'vo talablari bo'yicha ish yuritishni taklif qiladi.¹⁸

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonlariga zamonaviy texnik vositalarni joriy etish hamda shunga mutanosib ravishda protsessual qonunchilikka ham tegishli o'zgartish va qo'shimchalarning kiritilishi natijasida ham fuqarolik sud ishlarini yuritishni optimallashtirish yuz berdi.

Xulosa o'rnida, shuni alohida ta'kidlash kerakki, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tizimini optimallashtirish, odil sudlovga yo'l qo'yish va uning uchun shart-sharoit yaratish borasidagi vazifalarni hal etish ko'p jihatdan sud ishlarini yuritishning maxsus soddalashtirilgan tartib-taomillarini joriy etish hamda uncha murakkab bo'lmagan va keng ko'lamdagi sud muhokamasini talab etmaydigan nizolarni muqobil (alternativ) hal etish usullarini qo'llash bilan bog'liqdir. Zero, da'vo taqdim etishdan to sud hal qiluv qarorini chiqarishgacha bo'lgan yo'l qanchalik qisqa va yengil bo'lsa, protsess shuncha takomillashgan bo'ladi.

¹⁷ Вершинин А.П. Способы защиты гражданских прав в суде. Диссертация в виде научного доклада на соискание ученой степени доктора юридических наук. -Санкт-Петербург. 1998, -41 с.

¹⁸ Носырева Е.И. Альтернативное разрешение гражданско-правовых споров в США: Дис. ... докт. юрид. наук. -Воронеж, 2001. – 216, 221. с.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 2-avgustdagi “Sud tizimi xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4459-sonli Farmoni // Xalq so‘zi, 2012 yil 3 avgust; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 yil, 31-son, 355-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // <https://lex.uz/docs/3523891#3530437>
3. Куприянович Н.В. Критерии эффективности деятельности мировых судей // Мировой судья. – М.: Юрист, 2006. – № 1. – С. 2–6.
4. Царегородцева Е.А. Способы оптимизации гражданского судопроизводства: Дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.15. – Екатеринбург, 2006. – 238 с.
5. Вершинин А.П. Способы защиты гражданских прав в суде: Диссертация в виде научного доклада на соискание ученой степени доктора юридических наук. – Санкт-Петербург, 1998. – 40 с.
6. Доступ к правосудию. Резолюции и рекомендации Кабинета Министров Совета Европы по вопросам обеспечения более простого доступа граждан к эффективному правосудию // Российская юстиция, 1997. – № 6. – С. 2–6; № 7. – С. 5–8.
7. Грибанов Ю.Ю. Рассмотрение дел в порядке упрощенного производства в гражданском и арбитражном процессе: Сравнительное исследование правовых систем России и Германии: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Томск, 2007. – 8 с.
8. Вершинин А.П. Вексельный процесс: Упрощение и дифференциация // Правоведение, 1999. – № 3. – 170 с.
9. Baur F. Zivilprozessrecht. Frankfurt am Main, 1985. – S. 219.
10. Rosenberg L., Schwab K.H., Gottwald P. Zivilprozessrecht. München, 1993. – 993 S.
11. Stein F. Kommentar zur Zivilprozessordnung. Tübingen, 1984. – S. 82.
12. Jauernig O. Zivilprozessrecht. München, 1985. – S. 70–100.
13. Кудрявцева Е.В. Современная реформа английского гражданского процесса: Автореф. дис. ... докт. юрид. наук. – Москва, 2008. – 24 с.